

IMOM MARG'INONIY HAYOTI VA UNING "HIDOYA" ASARI HAQIDA

Isomiddinov Javohir Soibjon o'g'li
Samarqand Hadis ilmi maktabi talabasi.

Ma'lumki, Islom dini diyorimizga kirib kelishi bilan har sohada taraqqiyot rivojlanib ketdi. Xususan, Mavorounnahr o'lkalarida barcha ilm jabhalarida minglagan yetuk olimlar yetishib chiqdi. Tibbiyat, handasa, sheriyat, astranomiya, mantiq, fiqh, hadis, tafsir, kalom va boshqa ilmlarda zabardast bo'lgan ulamolarimiz butun dunyoga ustozlik darajasiga chiqishdi. Boshqa diyorlardan bizning yurtlarga juda ko'plab ta'lim oluvchilar juda ko'p edi. Yurtimizdan chiqqan ulamolar esa shu darajadi ko'p bo'lganki, ularni sanab adog'iga yetish mushkul ish hisoblanadi. Ularning qoldirgan beqiyos asarlari hali hanuzgacha o'rganiladi va hatto hozirgi oliy o'quv yurtlarida va ba'zi chet universitetlarida o'rnatiladi ham. Hozir ana shunday ulug' allomalardan biri bo'lgan 12 asr da yashab o'tgan buyuk olim faqih Burhoniddin Marg'inoniy rohmatullohi alayh va u kishining "Hidoya" asari haqiida ozroq so'z yuritamiz. Zero, mana shunday buyuk bobokalonlarimizni tanib, qoldirgan bebaho asarlari bilan tanishsak maqsadga muvofiq bo'lib ularning qilgan say-harakatlarini behuda ketmagan bo'lar edi.

Ismi va nasabi.

Mashhur "Hidoya" asari bilan tanilgan shayxul Islom buyuk Imom Burhoniddin Marg'inoniy ning to'liq ismlari Abu Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil ibn Xolil ibn Abu Bakr Farg'oniy bo'lib, nasablari hazrati Abu Bakr Siddiq roziyallohu borib taqaladi. O'zлari juda taqvodor, ibodatli faqih, usuliy olim va bundan tashqari boshqa ilmlarda ham mohir bo'lgan.

Tug'ilgan joyi, ulg'ayishi va ilm talab qilishlari.

Imom Marg'inoniy hijriy 511-yil (milodiy 1123-yil) Rajab oyining 8-kuni asr namozidan keyin Marg'ilonning Rishton tumanida tavallud topgan. Imom Marg'inoniy ilmiy muhit bo'lgan oilada dunyoga keldi. Otasi va bobosi ul zotni ilm talab qilishga udashar edi. Yoshlik chog'larida otalaridan dastlabki ilmlarni oldi. Bobosi Umar ibn Habib nevarasiga fiqh va xilof masalalarini hali balog'atga yetmasdan turib o'rgatardi.

Hadislarni shahridagi Soid ibn As'ad Marg'inoniy kabi zabardast ulamolardan eshitgan. Bobosi vafotidan so'ng Ziyod ibn Ilyos Abul Maoliy huzrida fiqh va xilof masalalarini ta'lim olishni davom ettirdi. Keyin ilm talabida Marvga safar qildi. U yerda Shayx Muhammad ibn Abdulloh Kushmihiy bilan uchrashib huzurida sahihi Buxoriyning aksar qismini o'qidi. Shayx qolgan qismiga ham ijoza berdi.

Bundan tashqari Imom Marg'inoniy Samarqandga ham safar qildi. U yerda o'z davrida mavorounnahrda hanafiy mazhabining shayxi bo'lgan Ali ibn Muhammad Isbijobiy huzuriga borib fiqh ilmini chuqur o'zlashtirdi. Keyin Nasaf shahriga rihlat

qilib Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy bilan ko‘rishdi va u kishidan ta’lim oldi. 544-hijriy sanada Haj ziyorati uchun Baytullohga safar qildi. Haj amallarini tugatib Madinayi Munavvaraga keldi va u joyda ustozlaridan biri bo‘lmish Umar ibn Abdul Mo‘min Balxiy bir muddat birga bo‘ldi.

Ustozlari.

Burhoniddin Marg‘inoniy imom Abu Hanifa rohimahulloh mazhabining mashhur shayxlari va ko‘zga ko‘ringan imomlaridan fiqh ilmini o‘zlashtirdi. Ulardan ba’zilarini aytib o‘tamiz:

1. " Xulosa" kitobi muallifining otasi Ahmad ibn Abdurroshid ibn Husayn Buxoriy

2. Shayxul Islom Abul Hasan Ali ibn Muhammad ibn Ismoil Isbijobiy Samarqandiy

3. Najmaddin Abu Hafs Muhammad ibn Ahmad Nasafiy Hanafiy Samarqandiy

4. Abul Maoliy Qoys ibn Is'hoq ibn Muhammad Marg‘inoniy.

5. Minhajush-sharia Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan

6. Alloma Abu Rizo Sadiduddin Muhammad ibn Mahmud ibn Ali Taroziy.

Shogirdlari.

Imom Marg‘inoniy juda ko‘plab shogirdlar yetishtirgan. Ular keyinchalik fatvo, tadrис va ilmning boshqa jabhalarida yetuk mazhab ulamolari bo‘lib tanilishdi. Ulardan:

1. Uch O‘g‘illari Imodiddin ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalil Farg‘oniy Marg‘inoniy, Nizomiddin Umar ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalil Farg‘oniy Marg‘inoniy, Abul Fath Jaloliddin Muhammad ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalil Farg‘oniy Marg‘inoniy

2. Shamsul aimma Abul Vajd Abdusattor ibn Muhammad Kardariy

3. "Ta’limul mutaallim" kitobi sohibi Burhonul Islom Zarnuiy

4. Husayn ibn Ali ibn Hajjoj

5. Qozi Imom Umar ibn Mahmud ibn Muhammad

6. Zayniddin Muhammad ibn Abu Bakr

7. Qozi Muhammad ibn Ali ibn Usmon Samarqandiy

8. Majduddin Muhammad ibn Mahmud ibn Husayn Usturshiniy

9. Jaloliddin Mahmud ibn Husayn Usturshiniy.

Ulamolarning ul zot haqida aytgan so‘zlari.

"Hidoya" kitobi sohiblariga o‘z asri va keyingi davrlarda yashab o‘tgan ko‘plab ahli ilmlar maqtovlar aytib madh etishgan. Ham asrlari bo‘lgan mashhur faqihlar: Qozixon Hasan ibn Mansur, Imom Ahmad ibn Muhammad ibn Umar Attoniy, "fatovoi zohiriyya" va "favoidu zohiriyya" kitoblari muallifi Shayx Zohiriddin Buxoriy, "muhitul burhoniy" hamda "zaxira" kitoblari sohibi Burhoniddin Mahmud ibn Ahmad

ibn Abdulaziz kabi zotlar Imom Marg'inoniyning fazilati va ilmda peshqadam ekanligini e'tirof etishgan.

Ibn Mustavfiy nomi bilan mashhur bo'lgan alloma Muborak ibn Ahmad Rahmiy Irbiliy o'zlarining "Tarixu Irbil" nomli asarida Imom Marg'inoniyni quyidagicha sifatlaydi:

U hanafiyarning ulug'laridan, hofiz, mufassir, muhaqqiq, adib va mujtahid bo'lgan. Uning bir qancha asarlari bor bo'lib, eng mashhurlari "Bidoyatul mubtadiy" va uning sharhi "Hidoya" kitoblaridir.

Imom Qurashiy "Javohiri muziya" kitobida lug'at va nahv olimi imom Jamoliddin ibn Molik Muhammad ibn Abdullohdan quyidagilarni naql qiladi:

"Hidoya" muallifi Imom Marg'inoniy sakkizta ilmni bilar edi.

(Ular: Qur'on va sunnat, ijmo, aql va qiyos, had va burhon, nahv, sarf va lug'at, nosix va mansux, sababi nuzul, jarh va ta'dil va roviylarni bilish ilmlari).

Imom Qurashiy o'zlar esa yuqoridagi asarlarida Marg'inoniyni quyidagicha vasflaydi:

Ul zot imom, faqih, usul olimi, hofiz, muhaddis, mufassir, barcha ilmlarni jamlovchi, hamma fanlarni puhta o'zlashtirgan, muhaqqiq, munozara ilmida daqiq olim, zohid, parhezkor, fozil, mohir adib va shoir bo'lgan. Ilm va adabiyotda uning tengi yo'q. Xilof, jadal va munozara ilmlarida kuchli olim bo'lgan. Hanafiy mazhabida uzun quloch sohibi va qavllarda birini ikkinchisidan tarjih qila oladigan mujtahid bo'lgan.

Odob-axloqlari.

Imom Marg'inoniy zohid, taqvodor, ko'p ibodat qilar, ko'pincha ro'zador bo'lar edi. Rivoyat qilinadiki, "Hidoya" asarini 13 yilda yozib tugatadi. Ana shu vaqt mobaynida doim ro'zador bo'lgan. Lekin ro'zadorligini birov bilishini hohlamagan. Hodimi taom olib kelsa yashirinchaligida berib yuborar edi. Hodim esa buni bilmas, taomni shayx o'zi yedi deb o'yldi. Mana shunday taqvolari va ixloslari barokotidan yozgan "Hidoya" asari ulamolar orasida qabuliyyat topdi.

Vafotlari.

Burhoniddin Marg'inoniy hazratlari hijriy 593-yil (milodiy 1197-yil) Zulhijja oyining 14-kuni seshanbada Samarqandda vafot etdi va shu joyga dafn qilindi.

Hidoya asari haqida.

"Hidoya" fiqhiy masalalar bayon qilingan kitob bo'lib, 13 asrdan buyon hanafiy mazhabi bo'yicha eng muhim va mo'tabar qo'llanma sifatida barcha musulmon mamlakatlari madrasalari va Islomiy oliy o'quv yurtlarida o'qitilib kelmoqda. Unga 60 dan ortiq sharh va hoshiyalar yozilib, hanafiy mazhabining keng tarqalishi yo'lida ulkan manba sifatida xizmat qilib kelgan. Shuningdek, bu asarning fors, ingliz va rus tillariga tarjima qilinib, g'arb olimlari uchun ham mazhabimizni o'rganuvchilarga ham ahamiyatli manba sifatida qo'llanilayotgani bizni quvontiradi.

Burhoniddin Marg‘inoniy yozgan to‘rt jildli “Hidoya” kitobi hanafiy mazhabini bo‘yicha juda muhim va mukammal manba sifatida 55 dan ortiq kitob, yuzlab bob-u, fasllardan iborat bo‘lib, meros huquqidan tashqari, Islom fiqhining boshqa barcha sohalarini qamrab oladi.

Burhoniddin Marg‘inoniy meros huquqini o‘z kitobiga kiritmaganining sababi shundaki, imom A’zam Abu Hanifa meros muammolarini bir mustaqil fan sifatida fiqh ilmidan ajratgan va uni “Faroiz” ilmi deb atagan.

“Hidoya”ning birinchi jildi tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro‘za, zakot va hajga), ikkinchi jildi oila masalalari (nikoh, taloq kabi), qul muomalalari, had va jazolar, haq-huquq me’yorlari, shirkatchilik, jinoyat turlari, jarohatlar, vaqf kabi masalalarga, uchinchi jildi muomalalar va qozilik masalalariga, to‘rtinchchi jild esa, , jinoyat turlari, guvohlik va boshqa ko‘plab mavzularga bag‘ishlangan.

Burhoniddin Marg‘inoniyning shoh asari “Hidoya” eng mo’tabar darslik sifatida sakkiz asrdan buyon butun islom dunyosi, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hind yarim oroli, Turkiya va ko‘plab Arab mamlakatlari uchun eng daqiq va ishonarli manbalardan biri vazifasini o‘tab kelmoqda.

“Hidoya” Misr Arab Respublikasidagi eng qadimiy dorulfunun “Al-Azhar”, Afg‘oniston Islom dorulfununi, Hindiston Aligarh universiteti, “Deoband” doru-l-ulumi, boshqa Islom mamlakatlari olyi o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlariga kiritilgan. Bu buyuk kitob qonun tuzish tizimini rivojlantirish uchun asosiy manbalardan biri sifatida qo‘llanib kelmoqda. Afg‘oniston va Hind yarim orolida Kanz va Quduriy kitoblaridan keyin “Al-Hidoya”ni yetuk ustozidan o‘qib tamomlamagan tolib, haqiqiy faqih hisoblanmaydi.

“Hidoya” Sharqiy Hindiston shirkati tasarrufidagi Bengaliya viloyati mahkamalari uchun 1190/1776-yil G’ulom Yahyo tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Ushbu tarjima 1221/1807 yili Kalkutta shahrida chop etilgan. Ajablanarlisi shundaki, bu asar birinchi marta arab yoki fors tilida emas, balki Charls Hamelton tarjimasi asosida ingliz tilida 1791 yili Londonda nashr etilgan. Ushbu 4 jildli tarjima juda qimmat va noyob bo‘lgani uchun 1870 yil S.G. Gariyning nazorati ostida yangidan yaxlit holida bir jidda chop etilgan. Oxirgi marta inglizcha tarjimasi 1982 yili Lahorda bosmadan chiqqan. N.I. Grodekov “Hidoya”ni ingilizcha tarjimasidan rus tiliga o‘girgan va mazkur tarjima 1893 yilda Toshkentda nashr qilingan.

Shukurlar bo‘lsinkim, oxirgi yillarda o‘zimizning ustozlar tomonidan ham bu asarning arabchadan o‘zbek tiliga o‘girilgan nashrlari chop qilindi. Bundan tashqari boshqa ulug‘ bobokalonlarimizning ham asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, yangi nashrlarda kitob shaklida yurtdoshlarimizga taqdim qilinmoqda. Bu esa yurtimizda ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy me’roslariga bo‘lgan e’tibor qay darajada yuksak ekanligidan dalolat beradi.